

UDK: 332.1:338.2

BUXORO VILOYATI YALPI HUDUDIIY MAHSULOTI DINAMIKASI VA TARKIBIY O'ZGARISHLAR TAHLILI (2020–2024)

Ergashev Sherali Erali o'g'li

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyati yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) ning 2020–2024 yillardagi dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi o'sish sur'atlari va YaHM tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlariga asoslanib, viloyat iqtisodiyotining agrar modeldan sanoat va xizmatlar sektori ustuvor bo'lgan zamonaviy iqtisodiy tuzilmaga transformatsiyalanishi ko'rsatilgan. Shuningdek, investitsiya faolligi, tashqi savdo ko'rsatkichlari, aholi daromadlari va ishsizlik darajasining o'zgarish tendensiyalari chuqur o'rganilgan. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ilmiy asoslash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy o'sish, tarkibiy o'zgarishlar, investitsiya faolligi, tashqi savdo, Buxoro viloyati, mintaqaviy iqtisodiyot, strukturaviy transformatsiya.

Abstract. This article comprehensively analyzes the dynamics of Bukhara region's gross regional product (GRP) for 2020–2024, growth rates across economic sectors, and structural changes in GRP composition. Based on official statistical data, the study demonstrates the transformation of the regional economy from an agrarian model to a modern diversified economic structure dominated by industry and services. Investment activity, foreign trade indicators, population income and unemployment rate change trends are thoroughly examined. The research results are of practical significance for improving regional economic policy and scientifically substantiating regional development strategies.

Keywords: gross regional product, economic growth, structural changes, investment activity, foreign trade, Bukhara region, regional economy, structural transformation.

KIRISH

Mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali boshqarish, avvalo, hudud aholisi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni maqsadli segmentlarga ajratish orqali har bir guruhning ehtiyojlari, resurs salohiyati va rivojlanish dinamikasini aniqlashga asoslanadi, bu esa ichki imkoniyatlarni optimal safarbar etishga sharoit yaratadi. Zamonaviy mintaqaviy boshqaruvning mohiyati hodisalarni passiv kuzatish emas, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarni – global iqtisodiy siljishlar, texnologiyalar transformatsiyasi, demografik harakatlanish va investitsiya oqimlarining o'zgaruvchanligini – real vaqtda baholay oladigan raqamli analitik mexanizmlardan foydalanishda namoyon bo'ladi.



Date: 17th March-2026

O'zbekiston Respublikasini 2022–2026 yillarda rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi asosida shakllangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar mamlakat iqtisodiyotini jahon hamjamiyatida barqaror va raqobatbardosh pozitsiyaga ega bo'lgan, tashqi iqtisodiy munosabatlarda erkin harakatlana oladigan, global talab va bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tez va samarali moslasha oladigan zamonaviy iqtisodiy tuzilmaga aylantirishni maqsad qiladi. Strategiyaning ustuvor yo'nalishlari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiyalash, eksport salohiyatini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xususiy sektor faolligini oshirish va hududlar o'rtasida muvozanatli rivojlanishni ta'minlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 sentyabrdagi VM qarori №794 bilan Buxoro viloyatini 2019–2023 yillarda kompleks rivojlantirishga doir ustuvor vazifalar, 2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan PF-60-son Farmonida yangi O'zbekistonni 2022–2026 yillardagi taraqqiyot strategiyasi yo'nalishlari, shuningdek 2024 yil 5 dekabrda PQ-423-son qarorida Buxoro viloyatida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar belgilab berilgan. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur tadqiqotning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi Buxoro viloyati YaHM dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi o'sish sur'atlari va YaHM tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni kompleks tahlil qilish, investitsiya faolligi, tashqi savdo va ijtimoiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda mintaqaviy rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni o'rganishda bir qator fundamental nazariy yondashuvlar mavjud. Granberg A.G. (2003) ning mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi hududiy iqtisodiy tizimlarni kompleks tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, unda mintaqaning iqtisodiy potensialini baholash, tarmoqlararo aloqalarni aniqlash va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish masalalari nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu nazariya mintaqaviy YaHM tarkibini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Krugman P. (1991) ning yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyasi iqtisodiy faoliyatning hududiy joylashuvi, agglomeratsiya samarasi va mintaqalararo savdo munosabatlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini nazariy jihatdan izohlaydi. Myrdal G. ning kumulyativ sabab-natija nazariyasi mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning chuqurlashuvi va ularni bartaraf etish mexanizmlarini tahlil qiladi. Todaro M.P. (2012) rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida strukturaviy o'zgarishlar, agrar sektordan sanoat va xizmatlar sektoriga o'tish jarayonlarini keng ko'lamda tadqiq qilgan. Barro R.J. (1991) iqtisodiy o'sish omillarini kross-seksional tahlil asosida o'rganib, inson kapitali, investitsiyalar va institutsional omillarning ahamiyatini ko'rsatgan.

O'zbek olimlari orasida Eshmatov I., Umarov I. (2021) mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarish muammolarini o'rganib, hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish



Date: 17th March-2026

takliflarini ishlab chiqqanlar. Saidov M.X. (2021) hududiy rivojlanish istiqbollarini tadqiq qilib, O'zbekiston mintaqalari iqtisodiy salohiyatini baholash metodologiyasini taklif qilgan. Abdullaev A. (2020) mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish usullarini tahlil qilgan. Shu bilan birga, Buxoro viloyati YaHM tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni kompleks tahlil qilish va iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini miqdoriy baholash masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida quyidagi ilmiy usullardan foydalanilgan: qiyosiy tahlil usuli – respublika va viloyat ko'rsatkichlarini solishtirish; dinamik qatorlar tahlili – ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini aniqlash; tarkibiy tahlil – YaHM tarkibidagi tarmoqlar ulushining o'zgarishini baholash; indeks usuli – o'sish sur'atlari va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash. Tahlil davri 2020–2024 yillarni qamrab oladi.

Strukturaviy o'zgarishlarni baholashda Salai indeksi qo'llanilgan, bu indeks ikki davr orasidagi tarkibiy siljishlarning umumiy darajasini miqdoriy aniqlash imkonini beradi. YaHM o'sish sur'atlarini tahlil qilishda zanjirsimon va bazis indekslar hisoblangan. Investitsiya multiplikatori koeffitsienti va tashqi savdo balansining YaHMga nisbati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar ham aniqlangan.

TADQIQOT NATIJALARI

YaHM umumiy dinamikasi tahlili. Buxoro viloyati YaHM dinamikasi 2020–2024 yillarda hudud iqtisodiyoti barqaror o'sish traektoriyasida harakatlanganini ko'rsatadi. YaHM hajmi 2020 yildagi 35 320,0 mlrd so'mdan 2024 yilda 71 560,4 mlrd so'mga yetgan, bu 2,03 marta o'sishni anglatadi. Respublika YaIM hajmi 606 trln so'mdan 1 454,6 trln so'mgacha, ya'ni 2,40 marta oshgan.

1-jadval

O'zbekiston va Buxoro viloyatida yalpi mahsulot dinamikasi (2020–2024)

Ko'rsatkichlar	Birlik	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM (O'zbekiston)	trln so'm	606,0	734,5	888,3	1 091,0	1 454,6
YaHM (Buxoro vil.)	mlrd so'm	35 320	43 070	51 728	61 243	71 560
Viloyat ulushi	%	5,83	5,86	5,82	5,61	4,92
Sanoat o'sishi	%	101,5	100,1	106,0	106,3	106,4
Q/x o'sishi	%	101,9	104,7	103,9	103,8	103,0
Xizmatlar o'sishi	%	106,1	118,0	115,7	110,7	109,9
Qurilish o'sishi	%	117,0	111,8	101,5	103,7	117,4
Investitsiyalar	mlrd so'm	12 184	20 528	21 638	31 031	51 664



Date: 17th March-2026

Ishsizlik darajasi	%	10,6	9,8	8,8	6,5	5,4
--------------------	---	------	-----	-----	-----	-----

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Viloyatning respublika iqtisodiyotidagi ulushi 2020 yilda 5,83 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 4,92 foizgacha kamaygan. Bu mamlakat miqyosidagi o'sish sur'atlarining yanada yuqori dinamikada bo'lgani va boshqa viloyatlar iqtisodiy faolligining Buxoroga nisbatan tezroq o'sganini anglatadi. Tarmoqlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi 2022–2024 yillarda 106% atrofida barqaror o'sgan, qishloq xo'jaligida mo'tadil rivojlanish (103%), xizmatlar sohasida eng yuqori sur'atlar (2021 yilda 118%) kuzatilgan.

Investitsiyalar hajmi 12,18 trln so'mdan 51,66 trln so'mga yetib, 4,24 martalik kengayishni ko'rsatgan. Bu hududda yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining amalga oshirilganini aks ettiradi. Ishsizlik darajasi 10,6% dan 5,4% ga tushib, deyarli ikki baravar kamaygan.

YaHM tarkibiy tahlili. 2020–2024 yillarda Buxoro viloyati YaHM tarkibida muhim strukturaviy o'zgarishlar kuzatildi.

2-jadval

Buxoro viloyati YaHM tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Tarmoq	Birlik	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat	%	16,6	16,2	17,4	19,1	19,9
Qishloq xo'jaligi	%	40,8	40,4	39,1	37,4	35,0
Xizmatlar	%	32,3	32,7	33,5	34,0	35,2
Qurilish	%	10,3	10,8	10,0	9,5	9,9

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Sanoat ulushi 16,6 foizdan 19,9 foizgacha oshib, 3,3 foiz punktga ko'paydi. Bu hududda industrial rivojlanish, qayta ishlash tarmoqlarining kengayishi va ishlab chiqarish infrastrukturasining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Sanoat o'sishining asosiy omillari sifatida to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va kimyo sanoati tarmoqlarining rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ulushi 40,8 foizdan 35,0 foizgacha kamayib, 5,8 foiz punktga tushgan. Ammo mutlaq qiymatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi o'sishda davom etmoqda, ya'ni ulushning kamayishi ishlab chiqarish hajmining kamayishi emas, balki boshqa tarmoqlarning tezroq o'sishi natijasida yuzaga kelgan. Xizmatlar sohasi ulushi 32,3 foizdan 35,2 foizgacha oshib, 2024 yilda birinchi marta qishloq xo'jaligi ulushidan oshib ketdi. Bu servis iqtisodiyotining hududda tobora yetakchi sektorga aylanayotganini tasdiqlaydi.

Investitsiya faolligi tahlili. Viloyatga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga sezilarli oshib bormoqda.

3-jadval



Date: 17th March-2026

Buxoro viloyatida investitsiyalar dinamikasi va samaradorligi

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Jami invest., mlrd so'm	12 184	20 528	21 638	31 031	51 664
Yillik o'sish, %	100,0	168,5	105,4	143,4	166,5
Invest./YaHM, %	34,5	47,6	41,8	50,7	72,2
Jon boshiga, mln so'm	6,26	10,38	10,76	15,18	24,87
Resp. ulushi, %	5,46	7,07	5,91	6,53	8,09

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Investitsiyalarning YaHMga nisbati 34,5% dan 72,2% ga yetdi. Jon boshiga investitsiya hajmi 6,26 mln so'mdan 24,87 mln so'mga, ya'ni 3,97 marta oshgan. Viloyatning respublika investitsiyalaridagi ulushi 5,46 foizdan 8,09 foizga ko'tarilgan. Bu hududda investitsiya muhitining sezilarli yaxshilanganini ko'rsatadi. Investitsiya faolligining oshishi viloyatda sanoat korxonalarining kengayishi, infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining jonlanishi bilan bevosita bog'liq.

Ayniqsa, 2023–2024 yillarda investitsiyalar hajmining keskin oshishi davlat-xususiy sheriklik loyihalari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va xorijiy investorlarning mintaqaga qiziqishining kuchayishi natijasida yuzaga kelgan. Investitsiyalarning tarmoq tarkibida sanoat va infratuzilma loyihalari ustuvor o'rin egallaydi.

Tashqi savdo tahlili. Buxoro viloyatining tashqi savdo aylanmasi tadqiqot davrida muhim o'zgarishlarga duch keldi.

4-jadval

Buxoro viloyatining tashqi savdo dinamikasi

Ko'rsatkich	Birlik	2020	2021	2022	2023	2024
Eksport	mln \$	231,1	312,1	306,5	301,4	311,7
Import	mln \$	600,1	868,8	918,2	910,9	1 012,9
Saldo	mln \$	–369	–557	–612	–610	–701
Eksport/Import	%	38,5	35,9	33,4	33,1	30,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari

Tashqi savdo defitsiti 2020 yilgi 369 mln dollardan 2024 yilda 701 mln dollarga oshdi (+90%). Eksport 34,9% o'sgan bo'lsa, import 68,8% ga ko'paygan. Eksportning importni qoplash koeffitsienti 38,5 foizdan 30,8 foizga tushgan, bu viloyat iqtisodiyotining import qaramligining ortib borayotganidan dalolat beradi. Asosiy eksport mahsulotlari to'qimachilik buyumlari, paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari va qurilish materiallaridir.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar tahlili. Ijtimoiy ko'rsatkichlar dinamikasi viloyatda aholining hayot darajasi sezilarli yaxshilanganini ko'rsatadi.

5-jadval

Buxoro viloyatida ijtimoiy ko'rsatkichlar (2020–2024)

Date: 17th March-2026

Ko'rsatkich	Birlik	2020	2021	2022	2023	2024
Aholi soni	ming	1 947	1 977	2 010	2 044	2 077
Mehnat resurslari	ming	1 067	1 072	1 073	1 089	1 092
Aholi daromadlari	trln	29,7	37,1	44,5	49,2	56,7
Jon boshiga daromad	mln	15,3	18,8	22,1	24,1	27,3
Ishsizlik darajasi	%	10,6	9,8	8,8	6,5	5,4
Iqtisodiy faol aholi	ming	874	893	912	938	956

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari

Aholi soni 1 947 mingdan 2 077 ming kishiga o'sib (+6,7%), aholi daromadlari 29,7 trln so'mdan 56,7 trln so'mga (+90,9%) oshgan. Jon boshiga daromad 15,3 mln so'mdan 27,3 mln so'mga yetib, 1,78 marta ko'paygan. Ishsizlik darajasi 10,6% dan 5,4% ga tushib, deyarli ikki baravar kamaygan. Iqtisodiy faol aholi 874 mingdan 956 ming kishiga ko'paygan.

Ijtimoiy ko'rsatkichlarning bunday ijobiy dinamikasi viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yaxshilash siyosatining samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Ammo inflyatsiya omilini hisobga olsak, real daromadlar o'sishi nominal ko'rsatkichlardan past bo'lishi mumkin. Mehnat resurslari o'sish sur'atining (2,3%) aholi o'sish sur'atidan (6,7%) orqada qolishi demografik bosim muammosining mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Buxoro viloyati iqtisodiyotida 2020–2024 yillarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi. YaHM hajmining 2,03 marta o'sishi, investitsiyalarning 4,24 martalik kengayishi, investitsiya/YaHM nisbatining 34,5% dan 72,2% ga ko'tarilishi va ishsizlikning 5,2 foiz punkt kamayishi hududda iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

YaHM tarkibida sanoat ulushining 16,6% dan 19,9% ga oshishi, xizmatlar ulushining 32,3% dan 35,2% ga ko'tarilishi va qishloq xo'jaligi ulushining 40,8% dan 35,0% ga kamayishi viloyat iqtisodiyotining agrar modeldan diversifikatsiyalashgan zamonaviy tuzilmaga transformatsiyalanayotganining yaqqol dalilidir. Xizmatlar ulushining birinchi marta qishloq xo'jaligi ulushidan oshib ketishi bu transformatsiyaning sifat jihatidan yangi bosqichga kirganligi belgisidir.

Shu bilan birga, tashqi savdo defitsitining 369 mln dollardan 701 mln dollarga oshishi, eksportning importni qoplash koeffitsientining 38,5 dan 30,8 foizga tushishi, viloyatning respublika YaIMdagi ulushining 5,83% dan 4,92% ga kamayishi muammoli jihatlar sifatida baholanadi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish zarur;



Date: 17th March-2026

ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tarmoqlarni rivojlantirish, oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat yo'nalishlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish lozim;

uchinchidan, sanoat ulushini yanada oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq;

to'rtinchidan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini shakllantirish zarur;

beshinchidan, aholi daromadlarini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 sentyabrdagi VM-794-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 dekabrdagi PQ-423-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2020–2024).
5. Granberg A.G. Osnovy regional'noy ekonomiki. – M.: GU VShE, 2003. – 495 s.
6. Krugman P. Geography and Trade. – MIT Press, 1991. – 142 p.
7. Todaro M.P. Economic Development. – Pearson, 2012. – 862 p.
8. Barro R.J. Economic Growth in a Cross Section of Countries // QJE. – 1991. – Vol.106. – P.407–443.
9. Eshmatov I., Umarov I. Mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarish. – T.: Fan, 2021. – 286 b.
10. Saidov M.X. Regional'noe razvitie. – T.: Fan, 2021. – 312 s.
11. Abdullaev A. Ekonometrik modellashtirish asoslari. – T.: Fan, 2020. – 324 b.

